

O'ZBEK TILIDAGI INTERNET NEOLOGIZMLARIDA METONIMIYA VA SEMANTIK HODISALAR

Jalilov Bakhodir

Buxoro davlat universiteti doktoranti

Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21352137>

O'zbek tilidagi internet leksikasi hali yetarlicha o'rganilmagan soha hisoblanadi. O'zbekistonda internet muloqoti nisbatan keyinroq rivojlandi. Shu sababli bu sohada to'plangan til materiali ingliz tilidagiga qaraganda kamroq. Biroq bu kamlik emas bu o'rganilmagan boylik, deb qarash to'g'riroq bo'ladi. Chunki o'zbek tilining agglutinativ tuzilishi, so'z yasash mexanizmlari va milliy-madaniy o'ziga xosligi internet neologizmlarini o'zlashtirish va yangi yaratish jarayoniga noyob rang beradi.

O'zbek internet tilida kuzatiladigan eng keng tarqalgan hodisa inglizcha so'zlarga o'zbek qo'shimchalarini qo'shish orqali yangi fe'llar yasash. Bu jarayonning o'zi metonimik ko'chim bilan bevosita bog'liq bo'lmasa-da, natijada hosil bo'lgan so'zlar ko'pincha metonimik ma'no yuklaydi. Layklash so'zini olaylik. Dastlab u like tugmasini bosmoq ma'nosini anglatardi. Lekin bugun laykla so'zi ma'qullash, yoqishini bildirish, hatto seni e'tiborsiz qoldirmayman degan emotsional ma'noni ham anglatishi mumkin. Tugma bosish harakati butun bir ijtimoiy munosabatni ifodalab qo'ygan. Bu metonimiyaning aniq namunasi.

Inglizcha seen ko'rildi degan ma'noni anglatadi. Bu messengerda xabar o'qilgandan keyin paydo bo'ladigan belgi(ikkita "птичка"). U xabarni o'qib, javob bermaslik ma'nosini kasb etdi. Bu atamada chuqur ijtimoiy ma'no yashiringan: texnik belgi (ko'rildi belgisi) insoniy xatti-harakat (beparqlilik, e'tiborsizlik) o'rnida qo'llanilmoqda. Bu metonimiyaning o'zbek internetida yaqqol namoyon bo'lgan ko'rinishi.

Share qilish(Sheyr) va repostlash so'zlari ham o'zbek internet tilida faol qo'llaniladi. "Sheyr" inglizcha share so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ulashmoq, tarqatmoq ma'nosini anglatadi. Lekin sheyrlash so'zi bugun nafaqat texnik ulashishni, balki bu menga muhim, men buni hammaga ko'rsatmoqchiman degan ijtimoiy signalni ham anglatishi mumkin. Bir texnik harakatning keng ijtimoiy ma'no kasb etishidir, bu ham metonimik kengayishning ko'rinishi.

O'zbek tilida kanal so'zi internet kontekstida maxsus metonimik ma'no kasb etgan. Telegram kontekstida kanal deganda, biz biror mavzudagi axborot manbayi telekanalni emas, Telegram kanalidagi muallif va uning butun faoliyatini tushunamiz. Mirzo Ulug'bek kanaliga obuna bo'ldim jumlasida kanal so'zi platformadagi virtual maydon o'rnida qo'llanilgan.

"Post" so'zi o'zbek internet tilida ham keng qo'llaniladi. Dastlab u ijtimoiy tarmoqlardagi yozuv yoki rasm edi. Lekin post yozdim, post solish, post sildim kabi ifodalarda bu so'z butun bir muloqot aktini, fikr ulashishni, ommaga murojaat qilishni bildiradi. Ijtimoiy tarmoqdagi bitta element butun bir harakat va niyatni ifodalab qo'ygan.

O'zbek internet tilida "troll" so'zi ham ingliz tilidagidan farqsiz ishlatiladi. Ammo o'zbek foydalanuvchilari bu so'zni ba'zan kengaytirilgan ma'noda qo'llaydi: troll qilish nafaqat onlayn bezovta qilishni, balki tanishlar bilan hazil-mutoyiba qilishni ham anglatishi mumkin. Bu holat so'z o'zbek tilining ijtimoiy-madaniy kontekstiga moslashayotganini ko'rsatadi tilning moslashuvchanligining yana bir isboti.

O'zbek tilida ingliz so'zlarini qabul qilishda ikki xil tendensiya kuzatiladi. Birinchisi, to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirib olish: layk, post, sher, troll bular o'zbek qo'shimchalari bilan

birlashib yangi soʻz yasaydi. Ikkinchisi, maʼno tarjimai orqali oʻzlashtirish: masalan, feed oʻrnida yangiliklar lentasi yoki oqim ishlatiladi. Birinchi tendensiya kuchroq ekanligi ayon, chunki tarjima koʻpincha soʻzning emotsional quvvatini yoʻqotadi.

Oʻzbek internet tilida yangi soʻzlar yasashning oʻziga xos usullari ham bor. Obuna soʻzi dastlab gazeta yoki jurnalga yozilishni anglatardi. Hozir u Telegram kanaliga obuna boʻlmoq maʼnosida ishlatiladi. Bu soʻzning eski maʼnosidan yangi maʼnoga koʻchishi metonimik kengayish: yozma nashrga obuna boʻlish jarayonining xususiyatlari (muntazam olish, muallif bilan aloqa) onlayn obunaga koʻchirilgan, ammo soʻz oʻzgarmagan.

Reklama soʻzining internet tilida oʻzgarishi ham qiziq. Reklama dastlab toʻgʻridan-toʻgʻri mahsulot yoki xizmatni targʻib qilishni anglatardi. Lekin oʻzbek internet muhitida reklama bermoq yoki reklama olmoq iboralari Telegram kanallar orqali amalga oshiriladigan targʻibotni anglatadi. Bu holat ommaviy axborot vositalaridagi reklama tushunchasining internet platformalariga koʻchirilishidir.

Umumlashtirib aytadigan boʻlsam, oʻzbek internet tilida metonimiya uch asosiy yoʻnalishda namoyon boʻladi. Birinchi, ingliz tilidagi metonimik modellarning oʻzbek tiliga toʻgʻridan-toʻgʻri koʻchirilishi (layqlash, seenlash). Ikkinchisi, oʻzbek tilida mavjud soʻzlarning internet kontekstida yangi metonimik maʼno kasb etishi (obuna, kanal). Uchinchi, ikki til elementi birlashib yangi metonimik birlik hosil boʻlishi (DM yuborimoq). Bu uch yoʻnalish oʻzbek internet tilining oʻziga xos boyligini koʻrsatadi.

Texnologiya va internet tili bugungi oʻzbek jamiyatining eng taʼsirchan leksik manbai hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlarda qoʻllanilayotgan yangi soʻzlar tezlik bilan xalq tiliga singmoqda. Masalan, “storilarni koʻrmoq”, “post tashlamoq”, “akaund ochmoq”, “trendga chiqmoq”, “reels qilish” kabi birikmalar grammatik jihatdan oʻzbekcha, lekin leksik jihatdan yangi oʻzlashmalarni oʻzida mujassam etadi. Bu jarayon tabiiy, chunki til foydalanuvchilari yangi kommunikativ muhitda oʻz fikrini ifodalash uchun yangi vositalarga ehtiyoj sezadi. Shu oʻrinda yoshlar tili ham alohida eʼtiborga loyiq.

Yosh avlodning tilida neologizmlar eng faol qoʻllanadi. Ularning tili zamon bilan hamnafas, tez oʻzgaruvchan, baʼzan esa norasmiy va yarim soʻzlashuviy tusga ega. Masalan, “kruto”, “top”, “prosta zoʻr”, “chill”, “vibe”, “mood”, “like bosmoq”, “blok qilmoq”, “skrin qilmoq”, “follower”, “story”, “update” kabi soʻzlar yoshlar oʻrtasida kundalik muloqot vositasiga aylangan.

Ayrimlari oʻzbek tilidagi soʻzlar bilan qoʻshilib, yangi shaklga ega boʻlmoqda: “bloklamoq”, “skrinlamoq”, “storilamoq”, “likechi”, “followerlik”, “tarmoqchi” kabi. Bu jarayon, baʼzan, tilning “sofligi”ga xavf tugʻdirayotgandek tuyuladi, ammo aslida bu tabiiy-leksik oʻzgarish. Har bir tirik til oʻz davrining madaniy, ilmiy, texnologik rivoji bilan birga oʻzgaradi. Shunchaki, bu oʻzgarishlarni boshqarish, tartibga solish, ularni adabiy tilda meʼyorlash zarur.

Til siyosati va leksikografiya bu borada muhim rol oʻynaydi. Masalan, “kompyuter”, “dastur”, “elektron pochta”, “fayl”, “brauzer” kabi soʻzlar dastlab begona boʻlsa, hozirda ular oʻzbek tilida toʻla oʻzlashtirilgan, hatto oʻz tarmoq neologizmlarini yasamoqda: “brauzer oynasi”, “fayl yuklamoq”, “dasturchi”, “onlayn dars” kabi. Neologizmlar paydo boʻlishining sabablari koʻp.

Eng asosiy omillar:

1. Texnologik taraqqiyot - yangi qurilmalar, dasturlar, xizmat turlari yangi atamalarni talab qiladi.
2. Ijtimoiy-madaniy jarayonlar - yangi gʻoyalar, hayot tarzi, kasb va hodisalar nomlanadi.

3. Globalizatsiya va tillararo aloqa - ingliz tili global til sifatida o'zbek tiliga ko'plab yangi so'zlarni olib kiradi.

4. Yoshlar submadaniyati zamonaviy muloqot uslubi va internet slengi orqali yangiliklarni tez singdiradi. Bu o'zgarishlarning ijobiy jihatlari bilan birga, ayrim salbiy tomonlari ham bor. Masalan, haddan ziyod o'zlashmalar natijasida milliy leksik fondagi asl so'zlar chetlab qolishi mumkin.

“Start” o'rniga “boshlanish”, “download” o'rniga “yuklab olish”, “update” o'rniga “yangilash” kabi o'zbekcha muqobillarni ishlatish tilning milliy ruhini saqlaydi. Shu bois, til siyosatida muvozanatni saqlash muhim: yangi so'zlarni qabul qilish, lekin o'z so'z boyligimizni ham qadrlash. Fikrimizcha, neologizmlar tilning rivojlanish belgisi.

Ular tilni jonlantiradi, zamon bilan uyg'unlashtiradi. Ammo bu jarayon ongli tarzda kechishi kerak. til foydalanuvchilari, ayniqsa yoshlar, yangi so'zlarni ishlatishda mas'uliyatni his etishlari lozim. Masalan, “onlayn ta'lim”, “sun'iy intellekt”, “raqamli iqtisodiyot”, “elektron hukumat” kabi neologizmlar nafaqat zamonaviylikni, balki taraqqiyotga intilishni ham ifodalaydi.

Bu so'zlar o'zbek tilini ilm-fan, texnika va global muloqot tiliga aylantirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilida neologizmlarning shakllanishi bu ijtimoiy taraqqiyotning tabiiy natijasidir. Ular jamiyat hayotining barcha jabhalariga singmoqda: siyosatda, texnologiyada, san'atda, yoshlar tilida, ta'limda. Muhimi, bu yangiliklar o'zbek tilining ruhiga mos, milliy qadriyatlarimizga zid bo'lmagan shaklda rivojlanishi kerak. Har bir yangi so'z bu yangi tushuncha, yangi imkoniyat. Til esa xalqning hayot ko'zgusi. Shu sababli o'zbek tilida paydo bo'layotgan har bir neologizmni faqat “begona” emas, balki “rivojlanish belgisi” sifatida ko'rish bu zamon talabi va tilga hurmatdir.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Jalilov, B. (2026). *Linguocultural foundations of neologisms in English and Uzbek internet lexicon*. *LinguoSpektr*, 6 (Special Issue), 345–355. <https://doi.org/10.70756/lingsp.v6iSpecial.1647>
2. Damodaran, Lekshmi, R. S., Abdusamatov, M., Subbulakshmi, V., Azizova, S., & Jalilov, B. (2026). *Smart tutoring systems using interactive natural language understanding with transformer-based models*. *International Journal of Artificial Intelligence and Machine Learning*, 6(1s), 345–355. <https://doi.org/10.51483/IJAIML.6.1s.2026.345-355>
3. Quدراتова, R. N. (2026). *Ingliz tilini o'qitishda multimedia vositalarining ahamiyati va gapirish ko'nikmasini rivojlantirishdagi didaktik salohiyati*. *Pedagogik mahorat*, (1), 42–46.